

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O'zbek va ingliz tillaridagi ayrim antroponimlar semantikasi masalalari	444
I.V.Xoldarova, X.A.Erg'oziyeva	
Fonetikani o'qitish orqali o'quvchilar nutqini shakllantirish	448
M.Kaxarova, N.Yunusaliyeva	
O'zbek va nemis tillarida bayram bilan bog'liq leksik birliklar tadqiqi	455
D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Iboralarning lingvopoetik xususiyatlari (Siddiq Mo'min she'riyati misolida).....	458
O.K.Rakhmatova, G.N.Davlyatova	
The structure of speech acts in various types of discourse	462
X.M.Sotvaldieva	
Paremiologiya fan sifatida	467
A.E.Botirova	
Grammatik terminlar lug'atini yaratishda muammo va yechimlar	473
R.Radjabov	
Orfoepiya va uning normalari to'g'risida fikr-mulohazalar	478
M.N.Raxmanova	
Texnik oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun ingliz tili darslarida kasbiy matnlarni tanlash usullari	482
U.B.Almaz, O.X.Barziyev	
Milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi she'riyati va Ozarbayjon adabiyotidagi mazmuniy mushtarakliklar	486
D.Sh.Islomov	
His-tuyg'uning paydo bo'lishi, uning asosiy holatlari psixolog olim Kerroll Ellis Izard talqinida	493
M.M.Abdujabborova, M.M.Yakubbayev	
Talabalarga ingliz tilini o'qitishda aqliy hujum metodini qo'llashning o'rni (nofilologik ta'lim yo'nalishi misolida).....	498
G.A.Saydaliyeva	
Geshtaltlarning turli sinonimik lug'atlarda va kontekstda ifodalanishi.....	501
G.N.Isakova	
Fransuz tilidagi muqaddas matnlarga oid qanotli iboralarning semantikasiga doir.....	506
J.J.Egamberdiyev	
Lug'at zamon va davr elchisi	511
Sh.Sh.Zarmasov	
Ot turkumi ma'no guruhini modellashtirishning lingvostatistik tahlili	515
G.P.Nazarova, F.B.Alimova	
"Harry potter" turkumidagi asarlarda neologizm va okkazonalizmlarning qo'llanilish tadqiqi.....	522
S.A.Mannonova	
Tijoriy yozishmalarda kommunikativ-pragmatik intensiyalarining o'xshash va farqli jihatlari	526
N.K.Ergasheva	
Dynamic interaction of foreign languages: factors of development in a global context	529
A.K.Usmonov	
Monologik nutqda bog'lovchilarning pragmatik xususiyatlari	533
N.K.Abbasova	
Evaluating the impact of digital tools in classrooms and online learning platforms	538
D.G.O'rinboyeva	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga ingliz tilini o'rgatish xususida ayrim mulohazalar	542
N.K.Abbasova, M.Abdulkhakimova	
Promoting oral communication through reading integration.....	545
Д.Ш.Рахмонова, Д.У.Ашурова	
Когнитивный подход к анализу художественного текста	550



UO'K: 821.161.1+512.133.091

MILLIY UYG'ONISH DAVRI FARG'ONA VODIYSI SHE'RIYATI VA OZARBAYJON ADABIYOTIDAGI MAZMUNIIY MUSHTARAKLIKAR**СОДЕРЖАТЕЛЬНАЯ ОБЩНОСТЬ ПОЭЗИИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ И ЛИТЕРАТУРЫ АЗЕРБАЙДЖАНА ПЕРИОДА НАЦИОНАЛЬНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ****SUBSTANTIVE COMMONALITY OF THE POETRY OF THE FERGHANA VALLEY AND THE LITERATURE OF AZERBAIJAN IN THE NATIONAL REVIVAL PERIOD****Almaz Ulvi Binnatova¹**

¹Ozərbayjon Respublikası, Azərbaycan Milli fanlar akademiyasının Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti "Ozərbayjon-Turkmaniston-O'zbekiston adabiy aloqalari" sho'basining mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

ORCID ID – 0000-0001-7991-3969

Oybek Barziyev Xabibullayevich²

²Farg'ona davlat universiteti filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

ORCID ID – 0009-0008-2965-4514

Annotatsiya

Maqolada milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi she'riyati va ozarbayjon adabiyotidagi o'zaro mazmuniy mushtarakliklar haqida gap boradi. Ozarbayjon adabiyotining yorqin vakillari: Ahmad Javod, Hasan Qorabog'iyning ayrim lirik asarlari Farg'ona vodiysi shoirlari: Xazinii to'ra, Nodim Namongoniy, Hayrat To'raqo'rg'oniy, Anbar otin she'riyatidagi mushtarak jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Har ikki millat she'riyatida yurt ozodligi, uni erkin va farovon ko'rish, xalqning qalbidagi orzu va istaklar turli parranda (bulbula) va hayvon nomlari (kiyik, ohu, jayron)lardan foydalangan holda ularning she'rlaridagi uslubiy yaqinliklarga urg'u berilgan. Shu bilan birga milliy uyg'onish davri ozarbayjon va o'zbek she'riyatida milliy mustaqillik tushunchalari, inson erki va uning qadr-qimmatini ulug'lash, o'z davrining hukmron vakillaridan insof hamda adolat kutish kabi g'oyalar xususida poetik mushohadalar qilingan. Bu o'tkinchi dunyoda inson zoti zavol va zarar ko'rmay yashab o'tishi haqida ilgari surilgan umumlashma mushtarak fikrlar ikki millat shoirlari ijodida yuksak ahamiyat kasb etganligi o'ziga xos bayon qilingan. Maqola tahlilga tortilgan davr ozarbayjon va o'zbek she'riyatida ilgari surilgan ikki millat tili, an'anasi, milliy mentalitetini va ayniqsa, xalqning poetik tafakkurida yuz berayotgan ulkan o'zgarishlar bilan tanishishimizda ahamiyatli sanaladi.

Аннотация

В статье говорится о взаимосодержательных общностях в поэзии Ферганской долины и литературе Азербайджана периода национального возрождения. Яркие представители азербайджанской литературы: некоторые лирические произведения Ахмеда Джавада, Гасана Карабаги, поэты Ферганской долины: Хазини Тора, Надим Намонгони, Хайрат Торакоргани, Анбар Атин, особое внимание уделено общим сторонам поэзии. В поэзии обоих народов подчеркивается свобода страны, видя ее свободной и процветающей, мечты и желания в сердцах людей, используя в своих произведениях разные названия птиц (булбула) и животных (олень, газель). В то же время в азербайджанской и узбекской поэзии периода национального возрождения были сделаны поэтические наблюдения над концепциями национальной независимости, прославлением человеческой воли и ее достоинства, ожиданиями честности и справедливости от правящих представителей своего времени. В этом бренном мире большое значение в творчестве поэтов двух народов имеют общие идеи, выдвигаемые о человеческом роде, живущем без страданий и вреда. Анализируемый в статье период считается знаменательным в нашем знакомстве с языком, традициями, национальным менталитетом двух народов, представленных в поэзии азербайджана и узбеков, и особенно с большими изменениями, происходящими в поэтическом мышлении народа.

Abstract

The article talks about mutually meaningful communities in the poetry of the Fergana Valley and the literature of Azerbaijan during the period of national revival. Prominent representatives of Azerbaijani literature: some lyrical works of Ahmed Javad, Hasan Karabaghi, poets of the Ferghana Valley: Khazini Tora, Nadim Namongoni, Khairat Torakorgani, Anbar Atin, special attention is paid to the general aspects of poetry. The poetry of both peoples emphasizes the freedom of the country, seeing it free and prosperous, the dreams and desires in the hearts of the people, using different names of birds (bulbula) and animals (deer, gazelle) in their works. At the same time, in Azerbaijani and Uzbek poetry of the period of national revival, poetic observations were made on the concepts of national independence, the glorification of human will and its dignity, and the expectations of honesty and justice from the ruling representatives of their time. In this mortal world, the common ideas put forward about the human race living without suffering and harm are of great importance in the works of poets of the two nations. The period analyzed in the article is considered significant in our acquaintance with the language, traditions, national mentality

TILSHUNOSLIK

of the two nations represented in the poetry of Azerbaijan and Uzbeks, and especially with the great changes occurring in the poetic thinking of the people.

Kalit so'zlar: ikki millat she'riyatdagi mazmuniy mushtarakliklar, xalq istagini ta'riflash, ozod yurtni qumsash, bulbul, ohu, kiyik jayron obrazlari, adabiy ta'sirlanish, erk va ozodlik g'oyasi, Mug'on cho'li, hukmdordan insof va adolat so'rash motivlari, Yaratganga iltijo qilish.

Ключевы слова: содержательные общности в поэзии двух народов, описание желаний людей, тоска по свободной стране, образы соловья, оленя, джейрана, литературное влияние, идея свободы, пустыня Мугань, требование справедливости от правителя, мольба Творцу.

Key words: meaningful commonalities in the poetry of the two nations, a description of people's desires, longing for a free country, images of a nightingale, a deer, a gazelle, literary influence, the idea of freedom, the Mughan desert, the demand for justice from the ruler, a prayer to the God.

KIRISH

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan, uni g'oyaviy-badiiy jihatdan boyitgan, lirik janrlarning mazmunini tubdan yangilanishiga xizmat qilgan qardosh ozarbayjon poeziya she'r san'ati sanaladi.

Mumtoz adabiyot tarixidan ma'lumki, ko'hna ozarbayjon she'riyati necha yil va asrlardan buyon o'zbek adabiyotiga ijobiy ta'sir etib kelgan. Ayniqsa, bu millatning buyuk vakili Nizomiy Ganjaviy ijodi o'zining serqirraligi va purma'noliligi bilan ko'plab o'zbek shoirlarining diqqat-e'tiborini tortib kelgan.

Ozarbayjon tilidan o'zbek tiliga qilingan ko'plab tarjimalar, xususan, she'r va dostonlar bu millat tilini, an'anasini, milliy mentalitetini va ayniqsa, xalqning poetik tafakkurida yuz berayotgan ulkan o'zgarishlar bilan tanishishimizda o'ziga xos manba sanaladi.

ASOSIY QISM

O'z ona yurtining mavjud tuzumiga achinish, uning real hayotini ko'rib yurakdan ta'sirlanish, Vatan taqdiri va istiqboliga qayg'urish motivlari bilan yo'g'rilgan ko'plab she'rlar muallifi ozarbayjon shoiri Ahmad Javod (1892-1937) hisoblanadi. Ziyoli oiladan yetishib chiqqan shoirning hayot yo'li ham ayanchli va tahlikali kechadi. U "1937-yilda aksilinqilobchi va panturkist sifatida ayblanib stalinizm jallodlari tarafidan otib uloqtirilgan"[Razzoq Abdurashid tarjimasini:1]ligi haqida manbalarda qayd etilgan.

Shoironing "Tonar bo'lsam" nomli she'rida ijtimoiy yurt ozodligi yo'lidagi harakat mavzusi yetakchilik qilgan bo'lib, unda lirik qahramonning haqiqiy vatanparvarlik tuyg'ulari aks ettirilgan. She'rda shoironing haroratli muhabbati ona Vatanga nisbatan sodiqligi bilan belgilanadi. Shoir tug'ilib o'sgan diyorida kechsa, uning bahori qishga aylanishini "chechaksiz diyor" bo'lishini bashorat qilgan holda o'z yurtining tasvirini rassom kabi chizishga erishadi:

Agar sendan tonar bo'lsam nasibim ohu zor o'lsin,
Bahorim qishga aylansin, chechaksiz bir diyor o'lsin.
Chamanzorim, bog'im-bog'cham to'kilsin bari xor o'lsin,
Mozorim o't olib yonsin, bu ishim oshkor o'lsin.[Razzoq Abdurashid tarjimasini:2]

Shoir she'rida ifodalangan asosiy mazmun Nodim Namangoniyning 1908-yilda toshkentlik mashhur To'ychi hofiz Toshmuhammedovning Namanganga qilgan tashrifi munosabati bilan yozilgan muxammasda ifodalangan g'oyani eslatadi. Nodim muxammasini "Nohidi zamona", ya'ni yorug' hayotni qumsash bilan boshlaydi:

Ey nohidi zamona, senga intizorman,
Mushtoq suhbating manu hajringda zorman,
Dovudi savti lahing, asiri figorman,
Istab mudom bodai vasling, xumorman,
Mehru muhabbatingda base beqarorman.[Nodim Namangoniy. Tanlangan asarlar:3]

O'zi tug'ilib voyaga yetgan diyorni madh etib, uni yuksak e'tirof etishda har ikki shoir bulbul obrazidan unumli foydalanadi. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixidan ma'lumki, bulbul vatanparvar timsol sifatida talqin qilingan bo'lib, u hamisha ozod yurishni istaydigan qush sifatida ifoda qilib kelingan. Xususan, hazrat Alisher Navoiy yozganidek, "bulbulning oltindan qafasi bo'lganida ham, u o'zining tikandan bo'lgan oshiyonini qumsab yashaganligi" ma'lum. Ahmad Javod she'rida bulbul va dovulga qarata murojaat qiladi. Shoir she'r satrlarida o'z yurtida vafot etishni ulug' ne'mat va shonli saodat deb bilishi ham uning gumanizm g'oyalari tarqatib berishi ekanligidan dalolat beradi:

Qo'y-ey bulbul, tiney dovul, ki xohish istirohatdur,
 Bu yerlarda ilinjim yo'q, yupanchim bir sayohatdur.
 O'lim, evoh, bir ne'matdur, u bir shonli saodatdur,
 Agar bevaqt o'lar ersam raqibim baxtgiyor o'lsun.

Nodim Namongoniy ijodida esa yurtida honish etayotgan bulbul va uning sadosidan bahra olayotgan lirik qahramon, ya'ni shoirning o'zini yurtga tashnalik sururini surayotganligini oson ilg'aymiz. U sirlar xazinasidan joy olgan bulbulning sadosini go'yo bosh va oyoq bo'lgan holda yurt qo'riqchisi sifatida uning bor mas'uliyatini yurakdan sezgan holda tinglaydi. Chunki, u Vatanning ertasi va kelajagi uchun go'yo bulbul va uning qilayotgan honishi kabi qayg'urmoqda:

Chunkim azalda qodiri bechun berib navo,
 Kayfiyati suru ajab ayladi ato,
 Bulbul navosin sasi qalbing ichra jo,
 Asrori fayz g'aybig'a, mazhar erur sado,
 Sar to ba po qulog' o'lub oyinavorman.

Bu jihatdan Qo'qon adabiy muhitining peshqadam vakili Zokirjon Furqatning "Bulbulga xitob" nomli g'azalida ham g'oyaviy mushtaraklik seziladi. Unda o'z yurtidan o'zga yurtni havas qilib u yerga borib qolgan, oqibatda tug'ilib o'sgan yurtini qumsayotgan kishilar hayotiga alohida urg'u beriladi:

Chamanda g'unchadin bo'yningga taqmishsan jaras bulbul,
 Magarkim o'zga gulshan rihlatin qilding havas bulbul.[Furqat. Tanlangan asarlar:4]

G'azalning keyingi baytlarida vatanparvarlik, yuqorida nomlari zikr etilgan shoirlar ijodida qo'llangan tutqunlik azobi, o'z yurtiga nisbatan sodiqlik tuyg'ulari teran ifodalanadi:

Bu isyon lazzatidurkim, judo bo'lg'on gulistondin,
 Asiri dom bo'lding ham giriftori qafas, bulbul.

G'azalda ifodalangan asosiy g'oya va bulbul obrazining tasvirlanishi hazrat Alisher Navoiyning mashhur ruboiysida ifodalangan mazmun tahlil qilinayotgan shoirlar ijodi bilan uyg'unlikka ega.

Milliy uyg'onish davri Namangan adabiy muhitining yana bir peshqadam shoiri Hayrat To'raqo'rg'oniyning "Judo" radifli g'azalida ifodalangan mavzu yuqoridagi fikrlarni to'ldiradi va ularni mantiqan davom ettiradi. Shoir g'azalini o'z yurtidan judo bo'lgan bir taqdir kishisi sifatida boshlaydi:

Bo'lmasun yorab, kishi mendek diyoridin judo,
 Ayshu ishrat no'shi jomi ro'zgoridun judo.

Tortibon tori nasiba har taraf zanjir ila,
 G'urbat ichra zor o'lub ahli qatoridin judo.

G'azalning keyingi baytida an'anaviy bulbul obrazi yurtining maftunkor va fusunkor ekanligini yoritishga xizmat qilgan. Shoir qo'llagan bulbul o'z "bahoridan", ya'ni yurtidan judo bo'lganligi, shuning uchun jonni o'rtovchi nola qilayotganligi bilan xarakterlanadi:

Bulbul o'lmas xush navo ayrilsa gulistondan,

Nolasi jonso'z ul fasli bahoridin judo.[Asrlar nidosi. Mumtoz o'zbek adabiyotidan namunalar:5]

Ahmad Javod ijodida erk va ozodlik g'oyasi bilan sug'orilgan she'rlardan biri "Jayron" deb nomlanadi. Unda asosiy voqealar aks etadigan makon sifatida Ozarbayjondagi Mug'on cho'li nomi keltirilgan. She'r erki o'zida bo'lmagan jayron va uning suruviga murojaat qilish mazmuni bilan boshlanadi:

Erdan oyoqlaring qush kabi uzib,
 Yoy kabi sollanib, o'q kabi suzib,
 Yana o'z suruviga bir safga tizib,
 Bosh olib ketursan qayona, jayron?

Mazkur she'r g'oyaviy yo'nalishiga ko'ra, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotining mashhur namoyandasi Zokirjon Furqatning "Sayding qo'yaber, sayyod" deb boshlanuvchi musaddasida ifodalangan asosiy g'oyani yodga soladi. Furqat musaddasida ham kiyik, sayyod (ovchi) obrazi va ov manzarasi kishilarning tutqunlik holatiga uyg'un holda aks etadi.

TILSHUNOSLIK

Mazkur lirik asarlardagi an'anaviy epizodlar va obrazlarni o'z ijodida mujassamlashtirgan Nodim Namangoniyni erk va hurriyat mavzusi ulug'langan muxammasi mavjud. Nodim muxammasida Furqat qo'llagan uslub, ohang, qofiya va radif aynan saqlangan. Muxammasda ozarbayjon shoiri Ahmad Javod qo'llagan jayron obrazi ohu obraziga almashgan holda uchraydi:

G'am dashtida bu ohu ovora ekan mendek,
Tog'u tuz aro yolg'uz sayyora ekan mendek,
Ko'z yoshi ravon, jismi ko'p yora ekan mendek,
Sayding qo'yaber, sayyod, bechora ekan mendek,
G'am tig'i bila bag'ri sadpora ekan mendek.[Nodim Namangoniyy.. Tanlangan

she'rlar:6]

Shoirning lirik merosida o'zlarining ruhiy holatiga ishora qilingan jihatlar, ular haqida ochiq aytilgan fikrlar ham ko'zga tashlanadi. Ahmad Javodning Mug'on cho'llarida yuragi o'rtangan holatlari

Hayratga g'arq bo'lgan yuragim bilan,
Oh yana o'taman Mug'on cho'lidan.
Yonida bolasi, ko'lmak suvidan,
Ichadir egilib bir ona jayron

tarzida yozilgan satrlari orqali yorqin ifodalanadi. Nodim Namangoniyy ijodida esa shoirning shaxsiy kechinmalari ohu timsoliga majoz qilingan holda amalga oshiriladi.

Bunday holat Zokirjon Furqat musaddasidagi lirik qahramon kechinmalarini ham eslatadi:

Ko'p holi zabun erkan, aftodayu dilxasta,
Qo'yg'il oni, to bo'lgay avlodig'a payvasta.
Bo'lsun g'amu kulfatdin rohat bila vorasta,
Esh qilma kamandingga qo'lu oyog'in basta,
Sayding qo'yaber, sayyod, bechora ekan mendek,
G'am tig'i bila bag'ri sadpora ekan mendek.

Nodim va Furqat she'rlari mazkur lirik asarlarning asosiy qahramonini o'z domiga giriftor qilgan ovchi obraziga murojaat qilish bilan tamomlanadi. Aynan ushbu obrazga murojaat qilish an'anasi Ahmad Javod ijodida ovchining insofga chaqirish epizodini qo'llash orqali saqlanib qolgan:

Ovchi, insofga kel tushma izidan,
Ayirma bizni cho'llar qizidan.
Bir parcha uzmagil yuragimizdan –
Yana bo'yalmasin, qo'yxona jayron,
Juda yarashibdi Mug'ona jayron.

Ahmad Javodning 1919-yilda yozilgan "Kelma" radifli murabba'si ham ona yurtning real tasviriga bag'ishlangan. Shoir she'rida tabiatning mo'jizalari va hodisalariga murojaat qilgan holda o'z yurtida yuz berayotgan salbiy o'zgarishlarni realistik manzaralar asosida yoritishga harakat qiladi:

Bu tog'lar – meniki, yangi kun kun ko'rdi,
Magar seni ohim, ey tuman, kelma!
Inonma falakka, burmishdir yuzin,

Endi u yuz burmas har zamon, kelma! [Turkiy adabiyot durdonalari. Ozarbayjon zamonaviy she'riyati antologiyasi:7]

O'z yurtida, ko'z o'ngida bo'layotgan misli ko'rilmagan ulkan o'zgarishlarni bevosita guvohiga aylangan shoir Anbar otin ham "Ko'rma" radifli ishqiy mazmundagi g'azalida ozarbayjon shoirining uslubiga yaqin bo'lgan badiiy lavhalarni gavdalantiradi. Har ikki ijodkorning qalamiga mansub bo'lgan lirik asarlarda ular yashab o'tgan jamiyatning nopok jihatlarini sanab o'tish hamda undan aholini ogohlantirish g'oyalari bilan bog'langan an'anaviy poetik turkumlilik ustuvor sanaladi:

Ey do'st, jaholat ahlig'a oshno bo'la ko'rma,
To kelguncha baxtu saodat shaydo bo'la ko'rma.

Har kimki o'zin o'yladi, eldin xabari yo'q,
Ul ablahi bedin ila savdo qila ko'rma.[Anbar otin.Sh'erlar risola:8]

G'azalda jaholat botqog'iga botib borayotgan, har kim faqat o'z manfaatini o'ylab yashayotgan zamondan bezib, oqibatda ko'ngli zada bo'lgan shoiraoning hasratlari ochiq-oydin ifodalangan bo'lsa, Ahmad Javod she'rida bunday holatlar tabiat hodisalariga uyg'un holda ifoda etiladi va o'z yurtini "charchoq o'lka" sifatida ta'rif etishi uslubiy o'ziga xoslikni anglatadi:

Yomg'irsiz bulut hey! Hey, qora ko'lka!
Alishtirmam gulni u sovuq do'lga,
Suyukli shu yurtim, shu charchoq o'lka,
Boqar yot ko'zlarga ko'p yomon, kelma!

Shoira Anbar otinning o'z yurti tasviriga bag'ishlab yozilgan g'azallaridan biri "Qachon kelgay" radifi bilan nomlanadi. U g'azalida bu dardga to'lgan dunyoning dardmandiga aylanib ulgurandek tasavvur uyg'otadi. Shu sababli shoira o'z dardiga davo istaydi. Umid qilishdan charchamaydi, yozgan she'rlarida jonajon diyorining ozodlikka chiqishi haqidagi shirin orzular bilan birga yashagan holda doktor obraziga murojaat qiladi:

Gapur, do'xtur, mening dardimg'a dorular qachon kelgay?

Bu dardni qaqshaturg'a tund og'ular qachon kelgay? [Anbar otin. Sh'erlar risola:9]

Shoira Ahmad Javod she'rida ifodalangan radifga zid holda radif tanlagan. Ahmad Javod yurtidagi oddiy xalqqa nisbatan ko'rsatilayotgan zavolliklar, illatlardan aholiga "kelma" deb murojaat qilsa, Anbar otin bo'lib o'tayotgan xunrezliklardan ortiqcha bezigan holda nurafshon va osuda hayotni qumsab yozadi:

Qaro baxtim misoli oftob nurida kuyganlar,
Qadimdan do'stu jon ul chashmi ohular qachon kelgay?

Yana bir ozarbayjon shoir Mirza Hasan Qorabog'iy ijodida davr manzarasini real aks ettiruvchi "Yo'q" radifli g'azal ham xarakterli. G'azal shoir yashab o'tgan jamiyatda yordamga muhtoj, murodiga yetmagan kishilarning holatini realistik usulda yoritib berish bilan boshlanadi. Shoir jamiyatdagi mavjud moddiy-ma'naviy jihatdan madadga muhtoj bo'lib yashayotgan kishilarning ahvolini talqin qilishga harakat qiladi:

Afsuski, olamda imdodga yetgan yo'q,
Faryod qilgan ko'pdur, vale dodga yetgan yo'q.

Tanho emassanki, kam de muyassar, ey, dil,
Maqsudi murodina bu dunyoda yetgan yo'q.[Turkiy adabiyot durdonalari.

Ozarbayjon zamonaviy she'riyati antologiyasi:10]

"Yo'q" radifli g'azal muallifi Qo'qon adabiy muhitining vakili Xaziniy ham diniy manbalardan ta'sirlangan holda jamiyatdagi yetimlarga muruvvat qilish va ularning ko'nglini ovlash haqida to'xtaladi. Shoir jamiyatning bir bo'g'ini bo'lgan yetimlar va ularga munosabat bildirish haqidagi fikrlarini diniy ta'limotlarga asoslangan holda yoritib beradi:

Etimlar ko'nglini ovlang, alarga bermangiz ozor,
Yomon so'z birla og'ritmang, Xudoyimning rizosi yo'q.

Kimikim kirs shayton yo'lig'a, imoni yo'q beshak,
Alar iblis qavmidur, bo'lak bir peshvosi yo'q.[Xaziniy. Devon:11]

Yuqoridagi baytlar orqali kishilarni imon-e'tiqodli bo'lishga chorlaydi, shayton yo'lga kirmaslikka undash haqida bildirgan fikrlari Qorabog'iyning quyidagi didaktik yo'nalishda yozilgan satrlari bilan g'oyaviy jihatdan mushtarak sanaladi:

Har bir kimsaga holi diling aylama izhor yo'q,
Ko'p chekma abas, nolaki, faryoda yetgan yo'q.

Xalq ichra, ko'ngul, ko'r na yomon jangu jadal bor,
Bir matlabga bu sho'rishu g'avg'oda yetgan yo'q.

Qorabog'iy ijodida u yashab o'tgan yurtning holatini realistik tasvirlar bilan aks ettirishga xizmat qilgan g'oyalar ko'plab uchraydi. Shoir Vatanning kundalik turmush tarzini, undagi g'am-g'ussalarni ko'rib ko'ngliga murojaat qiladi. Natijada falakning gardishidan nola qilgan holda bu dunyoni "marorat, ya'ni qayg'u-alam asosida bunyod bo'lgan, degan to'xtamga keladi:

Ko'ngul, ko'p qilma nola, etma faryod,

TILSHUNOSLIK

Falakning gardishidan aylama dod.

G'ussadur – shodligi ayshi – marorat,
Bo'lubdur zulm ila bu dahr bunyod.

Mazkur baytlar Nodim Namongoniyni chin ko'ngildan fig'on qilishiga sababchi bo'lgan quyidagi g'azalining matla'si bilan mushtarak sanaladi:

Fig'onkim, charx bedodi bila ko'nglum parishondur,
Balou dardu g'am qaydida zori diyda giryondur.

Bu o'tkinchi dunyoga shoir Qorabog'iy "fano", ya'ni "o'tkinchi" deb baho beradi:

Fanodur oxiri, yo'qdur bahosi,
Bu dunyodan, Hasan, kim bo'ldi dilshod?!

Nodim Namongoniyni g'azalining begona baytida so'z qo'llash bilan bog'liq bo'lgan bu an'anaviy mahorat davom etadi. Ya'ni, shoir ham bu dunyoga "fano" deya baho beradi:

Fano sermanzilin istar kechib bu xonu monidin,
Bu dunyo gulshani ahbobsiz go'yoki zindondur.

Hasan Qorabog'iy ijodida "Qoldimu" radifli g'azal ham g'oyaviy jihatdan tahlil qilish uchun xarakterlidir. U o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida ijtimoiy mazmunni o'zida chuqur ifodalagan hamda hasbu hol usulida bitilgan Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur "Qoldimu" radifli g'azalini yodga soladi:

Xanjari – munis joni chashming to'kmagan qon qoldimu?
G'amzai – sho'xing paykoni olmagan jon qoldimu?

Bir qarashda ishqiy mazmun yetakchilik qilayotgandek tuyuladigan mazkur g'azalda shoir Qorabog'iyning yashab o'tgan jamiyatga nisbatan sabr-u qanoati, ko'ngil kechinmalari gavdalanadi:

Ohki dersan: "Mehnati hijronga sabr et, ey ko'ngul!
Sabr etarga ko'rkim, menda zarra imkon qoldimu?"

G'azalda ifodalangan asosiy ijtimoiy mazmun Xaziniyning "Qolmadi" radifli murabba'sida ham davom etadi. Shoir o'zi yashab ijod etgan davr va muhit tasvirini oshkora yozadi. Ishaqiy muammoni ijtimoiy mazmun bilan uyg'unlashtirgan holda yurt tepasida turgan rahnamolarga nisbatan "sitamgar", ya'ni zolim so'zini qo'llaydi:

Azizim eshit, ey zolimu sitamgar,
Hajr o'tiga zarra toqat qolmadi,
Muhabbating mani qildi qalandar,
Hajr o'tiga zarra toqat qolmadi.

Murabba'ning keyingi bandida hijrat, ya'ni o'zi tug'ilib o'sgan joyini tashlab, boshqa bir joyga ko'chib o'tishga toqat qila olmayotgan lirik qahramon – Qorabog'iy g'azalida ifodalangan ko'ngil kechinmalari bilan o'rtoqlasha boshlaydi:

Man muftalo, holim so'rsang, na bo'lg'ay?
Ishqing o'ti yurak-bag'rim dog'lag'ay,
Bu dardimga davo qilsang, na bo'lg'ay?
Hajr o'tiga zarra toqat qolmadi.

Muxammasning keyingi bandida ozodlik tomon intilish va jamiyatdagi mavjud tuzumdan zada bo'lib ezilgan ko'ngil holatlari aks etadi. Shoirning yashab o'tgan jamiyatda chin ko'ngildan yig'lashi boshqa yurtga bosh olib ketishni ko'zlashi o'tgan asrning boshlarida yuz bergan ijtimoiy tuzum haqida yorqin tasavvurlarni uyg'otadi:

Kecha-kunduz tinmay doim yig'larman,
Orom olmay shomu sahar bo'zlarman,
Boshim olib ketorimni ko'zlarman,
Hajr o'tiga zarra toqat qolmadi.

"Qolmadi" so'zini radif sifatida qo'llash an'anasi Hayrat To'raqo'rg'oniyni ijodida ham kuzatiladi. Shoirning g'azalida ham ishqiy muammolar yetakchilik qilgan bo'lib, Qorabog'iy she'rida uchragan sabr qilish, hukumat ahlidan rahm qilishlarini kutish motivlari uchraydi. G'azal pari obraziga murojaat qilish bilan boshlangan bo'lib, lirik qahramon undan boshqalarga muhtoj bo'lmaslikni so'rab, o'z ichki kechinmalari bilan o'rtoqlashadi:

Ey pari, bas qilg'il istig'noni, jonim qolmadi,

Senga uzr ayturga nutq ila zabonim qolmadi.

Ozarbayjon xalqining sevimli shoiri Muhammad Hodi ijodida ham ijtimoiy mazmun bilan bog'liq holda bitilgan she'rlar mavjud. Shoirning 1914-yilda yozilgan "Eski zamon shoirlari" nomli she'rida ijod ahlining qilgan mehnatlari oyoqosti bo'layotganligi, ilhom va kitob kabi kishilarga ziyo ulashuvchi vositalarga befarq qaralayotgan bir zamonga nisbatan shikoyat qilish mavzusi ustuvorlik qiladi. Shoir hukmron tabaqaga nisbatan "zavollilar" deya murojaat qiladi. Jamiyatda ijod kishilarining qadri to'talib borayotgani, ilhomning bir chaqalik qadri qolmayotganligini aytish orqali o'zi yashab o'tgan davr va muhitning naqadar qoloq ahvolda ekanligini yoritishni maqsad qiladi:

Bir puchak pul bo'ldi she'r, ilhomimiz,

Qolmadi bir muxlisu qoldi kitob.

Kimsa o'lmasdan uni o'tgay shitob,

Barcha shoir g'irt bekorchi ham xarob,

"Hoy, zavollilar, - deya etgum xitob –

Bir chaqa ilhomimiz ham nomimiz!"[Rauf Parfi tarjimasini: 12]

She'r mazmunidan milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida faol qo'llangan va o'ziga xos an'anaviy poetik turkumlilikni yuzaga kelishiga sababchi bo'lgan jamiyatda urchib borayotgan yana bir muammo – ijod kishilarga bepisandlik bilan qarash, ilhom tushunchalarining poymol bo'lib borayotganligini anglab yetamiz.

She'r bandlarida ilgari surilgan fikrlar shoira Anbar otinning bir muxammasida ifodalangan ayrim bandlardagi mazmuni yodga soladi. U jamiyatda aholiga savod va ziyo ulashuvchi vositalar nihoyatda zarur ekanligini nazarda tutgan holda yozadi:

Dilni tuzatib andesha ila ushlab qalamni,

Tilni uzatib, ilm pesha qilib, o'ylab u g'amni.

Yozsun u qo'lidin boy bermay bir damni,

Yozsun olamg'a boshidin o'tkan barcha alamni,

Qoldirmay olib borsun izingdin davomatingni.

XULOSA

O'zbek millatiga qardosh sanalgan ozarbayjon xalq poeziyasida qariyb ming yillardan beri kuylanib kelayotgan o'lmas mavzularning mazmuni milliy uyg'onish davrida o'zgarishga yuz tutdi. Bu davrning Farg'ona vodiysi shoirlari ijodida aks etgan ijtimoiy mazmun, ya'ni mavjud jamiyatdagi siyosatni tubdan o'zgartirish, yurt ozodligi va obodligi haqida bildirilgan azaliy hamda abadiy fikrlarning aynan lirik asarlarda barobar qo'llanganligi bilan xarakterlanadi. Har ikki millat she'riyatidagi bu kabi mavzular bir-biriga mushtarak holda ijodiy ta'sirlanganligi, biri ikkinchisidan ma'naviy ozuqa olgan holda maydonga kelganligi jihatidan ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. www.ziyo.uz.com/jahonadabiyotiOzarbayjonshe'riyati..AhmadJavodhe'rlari. Razzoq Abdurashid tarjimasini. 1-bet.
2. Nodim Namongoniy. Tanlangan she'rlar / Nashrga tayyorlovchilar: Tursunov A., Xalilbekov A. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1964. 60-bet..
3. Furqat. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchi: Holid Rasul. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. 105-bet.
4. Asrlar nidosi. Mumtoz o'zbek adabiyotidan namunalari. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982. 259-bet.
5. Nodim Namongoniy. Tanlangan she'rlar / Nashrga tayyorlovchilar: Tursunov A., Xalilbekov A. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1964. 63-bet.
6. Turkiy adabiyot durdonalari. Ozarbayjon zamonaviy she'riyati antologiyasi / To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: Bahriyev K. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. 29-bet.
7. Anbar otin. She'rlar risola. To'plovchi va so'z boshi muallifi: Husainova F. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1970. 16-bet.
8. Turkiy adabiyot durdonalari. Ozarbayjon zamonaviy she'riyati antologiyasi / To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: Bahriyev K. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. 10-bet.
9. Xaziniy. Devon / So'zboshi, lug'at-izohlar muallifi: Madaminov A., Jo'raboyev O. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999. 46-bet.
10. www.ziyo.uz.com/jahonadabiyotiOzarbayjonshe'riyati..MuhammadXodiyshe'rlari Rauf Parfi tarjimalari. 33-bet.